SHAXMATNING ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi v.b. dotsenti
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
E-mail: shax75.75 @ mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda biz shaxmat va adabiyot o’rtasida juda ko’p umumiy tomonlar uyg’unligini yoritib bermoqchimiz, O’zbekistonning buyuk shoir va adabiyotchilarimizning qalamlariga mansub bo’lgan she’rlari keltirilgan.

Kalit so’zlar: Shaxmat, she’riyat, barkamol avlod, debyut, mitelshpil, endishpils, adabiyotchilar, tugun, kulminatsiya

Аннотация: В этой статье мы хотим пролить свет на то, что между шахматами и литературой существует много общего, представлены стихи великих поэтов и литераторов Узбекистана, которые принадлежат их Перу. **Ключевые слова:** шахматы, поэзия, идеальное поколение, дебют, мительшпиль, эндишпиль, литераторы, узел, кульминация

Annotation: in this article we want to highlight the harmony of many common sides between chess and literature, the poems of Uzbekistan, which belong to the Pencils of our great poets and literati.

Keywords: Chess, poetry, harmonious generation, debut, mitelshpil, endishpils, literati, knot, climax

Mamlakatimizda bunyodkorlik jarayoni amalga oshayotgan hozirgi paytda ma’naviy-axloqiy etuk, intellektual rivojlangan, jismonan baquvvat, o’tkir zehnli, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o’z ma’ruzalarida: Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo’ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o’rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo’nalishlaridan biridir, [1. 29- b.] deb ta’kidlaganlar.

Quyida, xalqimiz suygan shoirlar Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, iste’dodli yozuvchi O’tkir Hoshimov va Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universitetining professor o’qituvchilari benazir va ardoqli ustozlar O.Tog’aev, I. Qo’chqortoev, J.Musaev, A.Qayumov, U.Normatov, B.Qosimov, S.Umirov, T.Dalimov, Azimboy Sa’dullaev, Anatoliy Sa’dullaev, R.

Inog’omov, akademik S.Sirojiddinov, Y.To’raqulov, O. Sodiqov, T.Azlarov, T.Sarimsoqov, M.Salohiddinov, A.Abduazizov, Sh.Rahmatullaev, T.Sirliboev, K.Muqimov, N.Ibragimov, T.Ernazarov, taniqli yozuvchi X. Do’stmuhammad ishtirokidagi o’yinlar chog’ida tarixiy mahorabalar, badiiy asarlarning yorqin syujetlari katakka ko’chib, bamisoli o’tmish jonlangan. Bu esa shu atrofda yig’ilgan yoshlar, ayniqsa, talabalar uchun o’ziga xos saboq, yosh shaxmatchilar uchun mahorat darsiga aylanib ketgan. [5. 23- b.]

Mazkur universitetning faxriy bitiruvchisi- O’zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning shaxmatga bag’ishlangan “She’r va shaxmat” she’ri ham o’sha qizg’in va samimiy kechgan shaxmat uchrashuvlarida tug’ilgan. Mana, qalbimizga yaqin bo’lgan o’sha, mashhur satrlar:

Katak qog’ozdagi to’rt yo’l she’r kabi
Shaxmat donalari saf chekkan qator.
Nayzador fili-u shoh suvoraspi,
Tug’bardor farzini hujumga tayyor.
Shaxmatni she’r bilan qiyosayladim,
Bilimdon o’quvchim, qilma e’tiroz.
She’r axir emasmi, shaxmatdek qadim,
Shaxmatda yo’qmi yo she’riy ehtiros. [2. 5-9- b.]

Har holda shaxmat va adabiyot o’rtasida juda ko’p umumiy tomonlar bor.
Quyida mana shunaqa xos tomonlardan bir qanchasini misol keltiraman:

1. Shaxmat o’yinidan oladigan barcha qanoat va zavq xuddi musiqa yoki qiziq she’r tinglagandagi zavq bilan teng keladi. O’yinimizdagi xatolarimiz esa kompozitor yoki shoirning xatolarini eslatadi.

2. Poeziyadagi kabi shaxmatda ham eng muhim narsa ritm, o’lchovidir. Shaxmatdagi barcha donalar juft-juftdir. She’rda buni qofiya deyiladi. Bunday qofiyalanishni o’zbekchada musamman usuli deb ataladi.

3. She’rning jon joyi bo’ladi, shaxmatni ham hal qiluvchi bitta yurish uchun o’ynaladi. Hikoyada kutilmagan yakun, shaxmatda esa-kutilmagan yurish qadrlanadi.

4. Xonasini topib qilish shaxmatchilardagina emas, balki adabiyotchilarda ham border.

5. Siz: debyut, mitelshpil, endishplis desangiz, adabiyotchilar: tugun, kulminatsiya, yechim, final deydi.

6. Seytnotga tushmagan yozuvchi bo’lmasa kerak. Hayot kishini doimo shoshirgani-shoshirgan. Shaxmatda esa har bir daqiqa qimmatlidir.

7. Hayotdagi qarama- qarshiliklarni badiiy adabiyotda tasvirlash konflikt deyiladi. Bir o’ylab ko’ringa shaxmat ham xuddi yaxshi drama asari singari konfliktga asoslangan emasmi? Konfliktsizlik nazariyasi shaxmatga yot. Darvoqe, u adabiyotga ham bo’lmasligi kerak.

8. Shaxmat ham odamlar, ularning qo’shiqlari, ijodlari singari qadimiydir. Biroq mana shu qadimiy tarix mobaynida shaxmatchilar ham, shoirlar ham doimo shohlarga hujum qilib kelishgan. To’g’ri, bu hujum badiiy obrazda yoki shaxmat donasida in’ikos etilgan hayotiy voqelikning simvolik hujumidir.

9. Piyodalarning o’yin davomida farzinga chiqishini ko’ra turib, mening hayqirgim keladi:

10. Yoshlar tirishavering! Maqsad sari dadil intiluvchi bo’ling! General bo’lishni orzu qilmaydigan askar yomon askardir! Pushkin ham gimnazist edi. Alisher esa Navoiy bo’lib tug’ilmagan.

11. Shaxmat taxtasidagi 64 ta xona behisob kombinatsiya uchun imkoniyat beradi. Bu kabi cheksiz imkoniyat shaxmat va ijod uchun umumiy xislatdir. Adabiyotda biz

o’tmishning eng yaxshi an’analarini davom ettiramiz, deymiz. Shaxmatda ham shunday: Karokaning himoyasini, yana bir talay narsalarni bilmay turib, ulardan ilgariga o’tib bo’lmaydi.

12. Do’stim hatto bolalarcha motni ham inson uzoq muddat mobaynida kashf etgan. Sen bu sodda o’yinni bilib, tezroq undan oshib ketgin,deb uni yaratgan.

13. San’at qurbonsiz bo’lmaydi. Shaxmat ham shunday. Ammo qurbon berishni bilmoq kerak. Nodonlar qurbon berib yutqizadilar, donolar esa, qurbon bera turib ham yutadilar.

14. Shaxmatning tomoshabopligini men kino yoki teleko’rsatuv bilan taqqoslayman. Adabiyotdan farqli o’laroq, shaxmat tarjima talab qilmaydi. Shaxmat ham xuddi qo’shiqlar kabi har qanaqa chegaralarni beruxsat oshib,yangi-yangi dillarni zabt etaveradi. [3. 66- b.]

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish kerakki, shaxmat haqida ko’p gapirishimiz mumkin. Lekin uni bir bora o’ynamagan, his qilmagan kishi uchun bu gaplar ahamiyatsizdek. Bu sport turiga kirishib ketish qiyin, kirishib ketgandan keyin chiqib ketish undan-da qiyin. G’alabaga bo’lgan ishtiyoq odamni yana va yana shaxmat taxtasi hamda oq va qora donalar sari yetaklayveradi. Shaxmat o’yinlarida nafaqat sport va san’at, balki falsafa, mantiq, hisob ilmlari ham o’zaro jamlanib, ajib uyg’unlik kasb etishini ta’kidlash joiz. Davomli mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi aqliy o’yinlar ichida eng asosiysi va murakkabi, mukammali bo’lgan shaxmat bilan bugungi kunda dunyoda 800 milliondan ortiq kishi shug’ullanayotgani ham bejiz emas, albatta.

Shaxmatda inson qalbidan qaynab chiqqan tuyg’ular, to’g’risidagi masala inson madaniyati tarixidan qiziqarli o’rin olgan. Eng muhim xulosa shuki, shaxmat - jahon xalqlari jamoaviy ijodining mevasi bo’lib, bunda o’rta osiyoliklarning xizmati alohida o’rin tutishi endilikda har taraflama e’tirof etilmoqda. Shaxmat insonda aqliy musobaqalarning qiziqarliroq shakllariga ehtiyoj tug’ilishi oqibatida paydo bo’lgan desak, yanglishmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. T:, ―O’zbekiston‖ 2018. 29- bet
2. Nosir Muhammad “Shaxmat mo’’jizasi” T 2014 y 5-9 bet
3. Muhiddinov M. Kataklarda yashiringan olam. T.: O’zbekiston, 1976. 66 b.
4. Muhiddinov M. O’n to’qqiz chempion. –T.: Yulduzcha, 1998. 8-9 betlar.
5. Рахмонов М, Шукуров А, Зарипов Б Тафаккурнинг 64 нуқтаси” Т.: Замин нашр, 2021 53-26б
6. У Холиқов O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37 Бошланғич синф ўқувчиларда шахмат ўргатиш орқали мантиқий фикрлаш ва шахсий сифатларини баҳолашнинг иннавоцион усуллари
7. UK Khalikov PEDAGOGICAL VALUE OF DEVELOPING PLAYING CHESS AMONG PRIMARY SCHOOLCHILDREN Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23